



O'ZBEK TILIDA LEKSEMALARGA AN'ANAVIY QARASHLARNING O'RNI.

Alisher O'razov

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Axrorov Alisher Akbarovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387359>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

leksema, til birligi, so'z, nutq birligi, leksik sath, so'z ma'nosi, leksik taraqqiyot, sistem leksikologiya, lisoniy hodisa, leksika

ABSTRACT

O'zbek tilshunosligi tarixi murakkab tarixiy jarayonlarni o'z boshidan kechirdiki, uning taraqqiyoti bosqichlarini keng ko'lamda ilmiy o'rganish fan oldida turgan eng asosiy masala hisoblanadi. Til birliklaridan leksemada(so'zda) milliylik, spesifiklik ko'proq ekanligi ma'lum. Shuning uchun ham dunyo tilshunosligida so'zga xos xususiyatlar va uning tatqiqi masalasi uzoq davrlardan beri o'rganib kelinadi, xususan, o'zbek tilshunosligida ham. Bu esa bizga dunyo tillari tarixi hamda o'zbek tilshunosligining tarixidan ma'lum. Jumladan, tilimizning yaqin o'tmishiga nazar tashlaganimizda, bugungi kundagi zamonaviy o'zbek tilshunosligining leksikologiya bo'limi bo'lim sifatida shakllanishi XX asrning birinchi choragidan boshlanganligining guvohi bo'lamiz. O'zbek tili leksikologiyasini jiddiy ilmiy tatqiq qilish, o'zbek tili lug'at boyligini, ya'ni leksik qatlamini tahlil qilish ishlari bilan bog'liq tatqiqotlar doimo olib borilishi kerak. Tilning sofliğiga e'tibor bergani holda, so'z o'zlashtirishda ma'lum bir filtrning bo'lishi, ya'ni shu so'zning tilda mavjud muqobilini qidirish yoki kalkalash kerakligi tilshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Shunday ekan, jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan tilda so'z(leksema) ni lisoniy va nolisoniy tatqiq qilish asosiy planda turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tilda so'zning eskirish yoki yangilanish hodisasi bo'lar ekan, tilshunoslik jamiyat bilan o'zaro hamohang tarza taraqqiy etib borar ekan, leksikologiyani ilmiy tatqiq qilish jarayoni hech qachon to'xtab qolmaydi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida sistem leksikologiya har tomonlama taraqqiy etib borar ekan, leksemani har tomonlama o'rganish, tahlil qilish ham ortib bormoqda.

Kirish. O'zbek tilshunosligi tarixi murakkab tarixiy davrlarni o'z boshidan kechirdiki, uning rivojlanish bosqichlarini belgilash va har bir davr bosqichini keng ko'lamda tatqiq etish fan oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi (F.Sharipov, 2022, 4-bet). O'zbek tilshunosligida so'zga xos xususiyatlar va uning tatqiqi masalasi uzoq davrlardan beri o'rganib kelinadi. Bu bizga o'zbek tilshunosligining tarixidan ma'lum. Tilimizning yaqin o'tmishiga nazar tashlaganimizda, bugungi kundagi zamonaviy o'zbek tilshunosligining leksikologiya bo'limi bo'lim sifatida shakllanishi XX asrning birinchi choragidan boshlanganligining guvohi bo'lamiz.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. A.Nurmonov dunyo tilshunosligida lisoniy va nutqiy munosabat o'zaro farqlanishi dastlab Ferdinand de Sossyurga bog'lash(aslida bu jarayon tilning falsafiy davridan boshlanganligini tilshunoslar e'tirof etishadi) va bu jarayon g'arbda paydo bo'ldi, deb aytish mumkin emas, chunki ancha oldin sharqda lisoniy hodisa va nutqiy hodisalarning o'zaro munosabati falsafiy, tasavvufiy tarzda bayon qilinganligini aytib o'tadi, shuningdek, til birliklariga lisoniy hodisa sifatida yondashish dastlab tilshunoslikda Abu Nasr Farobiyga borib taqalishi (faqat til birliklari lingvistik termin sifatida qo'llanilmaganligi bilan xarakterlanadi) olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Hozirgi tilshunoslikning falsafiy masalalari ichida markaziy o'rinni egallagan bilishning ikki bosqichi (hissiy va idrokiy), ya'ni bugungi talqin bilan aytganda, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida qiziqarli ma'lumot beradi. Til falsafasi uchun g'oyat muhim bo'lgan qator tushunchalarga (konstanta-aksidensiya, zot-tazohir, umumiylik-xususiylik; fahmiy (hissiy) bilish-idrokiy bilish) asos solgan ulug' faylasuf (A.Nurmonov, 2012, 178-bet) bo'lishi bilan birga tilshunos olim sifatida ham ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi choragida Yevropada tilshunoslik fanida tub burilishlar kuzatildi. Bu holat dunyo tilshunosligiga ham ta'sir etib, tilga formal va substonsional jihatdan yondashish kuchaydi va natijada tilshunoslik takomillashib borishi bilan birga, murakkablashib ham bordi. Ta'bir joizki, XX asrning 20-yillaridan keyin tilimizda tilshunoslik faniga bo'lgan e'tibor ancha kuchaydi. Bunga sabab sifatida o'sha davr fonida yuz berayotgan tarixiy voqea-hodisalar, jarayonlarga bog'lashimiz mumkin. Ilm-fan tobora rivojlanayotgan mintaqalarda hamma sohalar yuksak darajada ravnaq topa borayotgan edi. O'sha davr nuqtayi nazaridan zamonaviy, rivojlangan, yuksak jamiyatni barpo qilishni orzu qilgan jadidlar bor e'tiborini sifatli ta'limga qaratadilar. Ta'limning sifatli bo'lishi uchun esa ayrim holatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib olish kerak edi va shulardan biri til siyosati hisoblanardi. Ta'limda tilning o'rni qanday bo'lishi kerak degan muammo har tomonlama mukammal tilni yaratish uchun shu davr tilshunoslari tomonidan ko'plab tarixiy jarayonlar amalga oshirilganligi o'zbek tili tarixidan ma'lum.

Leksikologik ta'limotlar haqida gap ketar ekan, hozirgi o'zbek adabiy tili ilk pallalarini boshlab bergan Abdurauf Fitrat va uning zamodoshlari haqida to'xtalib o'tish lozim, chunki shu davr olimlarining say-harakatlari hamda ilmiy izlanishlari zamonaviy o'zbek ilmiy tilshunosligi ravnaqini boshlab berdi. Shu asnoda, Abdurauf Fitrat tilshunoslik va aynan leksikologik izlashlariga alohida to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Uning tilshunoslikka oid asarlarini tatqiq qilganimizda, fonetikadan sintaksisgacha, ya'ni o'zbek tili sistemasining har uch sathi bo'yicha ma'lumotlar berib o'tdi. Binobarin, leksik qarashlari orqali o'zbek tilida ilmiy jihatdan leksikologik ta'limotlar shakllandi. Olim so'zga ta'rif berar ekan, so'z ma'no bildirgan tovushlar to'dasidir. Bizning tilimizning xususiyatlaridan bo'lg'an tovish ohangi, ya'ni yo'g'onlik va ingichkalikdir. Haqiqatdan, asli o'zbekcha so'zlar yo yo'g'on, yo ingichka bo'ladi. So'zning so'z ma'no bildirishi, ohang va bosim egasi bo'lishi lozim (A.Fitrat, 2006, 145-bet). Fitrat ijodini tatqiq qilgan M.Qurbonova ham zamonaviy o'zbek tilshunosligining shakllanishida Fitrat va uning zamondoshlari Elbek, Munavvar Qori, Qayum Ramazon, G'ozi Olim, Sh. Zunnun singari fidoiylar ilk qadamlarni qo'yganligini qayd etib o'tadi.

O'zbek tilshunosligini har tomonlama tatqiq qilish, uni zamon talabidagi mukammal tilga aylantirish tilshunos olimlarning oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi va natijada ikki yo'nalish yorqin holda ajralib chiqdi:

- 1) o'zbek tili qurilishini boshqa, jumladan, sistem-struktur tahlil usuli bilan o'rganish;
- 2) sinxronik formal tavsif metodi vositasida yevropa tili andozasi asosida o'rganilgan o'zbek tilini o'z ontologik xususiyati asosida qayta tekshirish va shu asosda o'zbek tili qurilishining yangi - sof o'zbekona formal sinxronik tavsifini berish (Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. –Toshkent. 2002. 25-bet). Bu yo'nalishlar o'zbek tilining ananaviy va sistemaviy rivojlanishi kuchaytirdi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillaridan o'zbek ilmiy tilshunosligi ravnaq topa boshlagan bo'lsa, qirqinchi yillarida esa ancha jadallashdi. O'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'zbek tilining zamonaviy lingvistik ta'limotlari yaratila boshlandi. Shuning bilan birgalikda, o'zbek tili leksikologiyasining takomillashuvi ham jadal sur'atlarda kechdi va ilmiy izlanishlar asnosida yuqori bosqichga ko'tarila boshladi.

O'sha davrlar nuqtayi nazaridan, O'zbek tili leksikologiyasining takomillashuvida Faxri Kamolning "Hozirgi zamon o'zbek tili" (asarning leksikologiya qismi) (1957) va U.D.Pinxasovning "Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya va frazologiya)" (1969) asarlari katta yutuq bo'libgina qolmay, keyingi ancha mufassal leksikologik ta'limotlar yaratilishiga asos manbalar ham vazifasini o'tadi. O'zbek tilshunosligida bo'limlarni ajratish XX asrning o'rtalarida shakllandi. Jumladan, leksikologiya bo'limining alohida bo'lim ekani, o'rganish obyekti, maqsad va vazifalari, tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan munosabati belgilandi. So'z bilan tushuncha o'rtasidagi uzviy munosabat va ularning o'zaro farqi yoritildi (A.Nurmonov, 2012, 305-bet). O'zbek tilshunosligi tarixida so'zning leksik va grammatik ma'nolari ajratildi. Bundan tashqari, ko'p so'zlar o'zlarining asosiy ma'nolari bilan cheklanib qolmay, turli kontekstda turlicha ma'noga va ma'no ottenkalariga ega bo'lishi, shuningdek, so'zlarning ko'p ma'noliligi, o'z va ko'chma ma'nolari haqida ham, omonimlar, sinonimlar, antonimlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tildi (A.Nurmonov, 2012, 306-bet). So'z - gap qurilishida ham leksik, ham grammatik tomondan muhim ekanligi qayd etib o'tildi.

O'zbek tilshunosligida so'z va uning xususiyatlari haqida (fonetik, leksik-semantik, va grammatik) leksikologik ilmiy ta'limotlar, nazariyalar yaratilishida Y.D.Pinxasov o'rni ham nihoyatda kattadir. Bu bizga uning asarlari orqali ma'lum ("Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazologiya)" (1969). O'sha davrlardan boshlab leksikologiyaga doir lingvistik terminologiya ham mustahkam shakllana bordi.

So'zlarning munosabatga kirishuvidan hosil bo'ladigan so'zlar bog'lanmasi tilshunoslikning bir necha qismi uchun tekshirish obyekti hisoblanadi. Masalan:

1. Fonetika- so'zlarning tovush tomonini tekshiradi.
2. Leksikologiya- leksik birliklarni, so'z boyligini tekshiradi.
3. Frazologiya- so'zlarning barqaror bog'lanmasini, frazologik birliklarni tekshiradi.
4. Grammatika- so'zlarning o'zgarishi, so'z turkumlari; so'zlarning erkin bog'lanmasi (so'z birikmasi va gap), gapning bo'laklarini tekshiradi (F.D.Pinxasov, 1969, 7-bet).

Y.D.Pinxasovning ta'kidlashicha, tilshunoslikning bu qismlari bir-birlari bilan uzviy bog'langan holda ish ko'radi. Tilshunoslikda leksik birliklar asosiy planda ekanligi, u bir necha til bo'limlarining o'rganish obyekti sifatida tahlil etilishining o'ziyoq, uning tildagi ahamiyati katta ekanligi ma'lum bo'ladi. Xulosada shu ma'lum bo'ladiki, so'z (leksema) til tizimida har uch sathga aloqador birlik ekan.

O'zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichga-nazariy bosqichga, leksik birliklarni muayyan ma'no elementlarning munosabatidan tashkil topgan tizim sifatida o'rganish bosqichiga

ko'tarila bordi. Bu bilan o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy(nazariy) leksikologiyasiga o'tila boshlandi (A.Nurmonov, 2012, 307-bet). "So'z ma'nosi va uning valentligi" asarini tahlilga tortganimizda, tilshunos olim Iristoy Qo'chqortoyev so'z(leksema) haqida quyidagi xulosalarga keladi:

1. So'z tushunchasi tilshunoslikning g'oyat murakkab, qiyin tushunchalari qatoriga kiradi.
2. So'z sof fonetik hodisa bo'lmagani kabi sof grammatik hodisa ham emas. Shuning uchun so'zning fonetik diskretikligini yoki grammatik shaklini ko'rsatishning o'zi so'z mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi.
3. So'z- tilning asosiy(tipik) lug'aviy birligi. So'zning boshqa xususiyatlari uning bu xususiyatlariga nisbatan qo'shimcha xususiyat sanaladi.
4. Turg'un birikmalar ham tilning lug'aviy birliklar qatoriga kiradi (I.Qo'chqortoyev, 2002, 17-bet).

Yuqoridagi sanab o'tilgan fikrlardan anglashiladiki, I.Qo'chqortoyev so'zga izoh berar ekan, so'zga(leksema) aynan ta'rif berish qiyin(tildagi murakkab hodisa) deydi va shunday xulosaga keladi. So'zning murakkab tabiati haqida gap ketar ekan, so'zning ifoda plani ham, mazmun plani ham alohida hodisalardir. Bu hodisalar (ya'ni nom va uning mazmuni, ma'nosi) orasida ma'lum aloqa bog'lanish bor, lekin ular yagona hodisa emas: bir qancha tovush kompleksi bir ma'noni ifodalagani kabi (sinonimiya), bir xil tovush kompleksi bir qancha ma'noni ifodalay oladi (omonimiya, polisemiya) (I.Qo'chqortoyev, 2002, 38-bet). O'zbek tilida sistemaviy tatqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Chunki olamning o'zi yaxlit sistema ekanligi obyektiv olamning sistemadan iborat ekanligi, uning ifodalovchisi bo'lgan til ham sistema ekanligi, tilshunoslik fani sistemani, ya'ni til sistemalarini o'rganishi - e'tirof etilgan fakt. Bu, ayniqsa, tilning lugat tarkibida, leksikasida aniq ifodasini topadi. Demak, asosiy maqsad obyektiv olam (borliq)ni tashkil etuvchi guruhlar va ularni tilda aks ettiruvchi hodisalarning - sistemalarning mohiyatini belgilashdir. "Til sistemasi", "leksik sistema", "leksik paradigma", "leksik-semantik guruh", "semantik maydon" kabi tushunchalar obyektiv olam sistemasiga xos guruhlanishlarni aks ettiruvchi tushunchalardir (A.Hojiyev, 2007, 161-bet). Bu tatqiqotlarga avtonom holda yondashmay, har qaysi lisoniy hodisaning ostida yashirini yotgan moyiyatning ochilishiga diqqat qilinadi. Tatqiqotchi e'tibori ko'proq lisoniy hodisalar o'rtaidagi munosabatni yoritishga qaratiladi (Sh.Iskandarova, 2002, 13-bet). Sistem leksikologiya taraqqiy etib borishida, leksemaning alohida xususiyatlari tobora oydinlasha bordi, ya'ni leksemaning o'zbek tilshunosligidagi ahamiyati, boshqa til birliklari bilan munosabati, lisoniy hodisa sifatida nutqiy hodisaga aylanib, reallashishi kabi tomonlari ilmiy tahlilga tortildi. Shuningdek, leksemalarni paradigmatic, sintagmatic, ierarxik munosabatlar aspektida tekshirish bizga lug'at boyligining tizim (sistema) sifatida shakllanish qonuniyatlarini ochish, leksik birliklarning leksik sathning o'zidagi munosabatlarini va turli sath birliklari munosabatlarida tutgan o'rni (ishtiroki)ni to'g'ri baholash imkonini beradi (H.Jamolxonov, 2013, 237-bet). R.Rasulov leksemaga ta'rif berib, Leksema til birligi sifatida o'zaro uzviy bog'liq ikki tomonning yaxlitligidan, bir butunligidan iboratdir. "Bu butunlikning bir tomonini leksemaning fonematik - akustik strukturasi (nomema), ikkinchi tomonini esa ideal birlik — ma'lum tushuncha zaminida shakllangan ma'no (vazifa) - semema tashkil etadi" (H.Ne'matov, O. Bozorov, 1993, 14-bet). O'zbek tilshunosligida leksik birliklarni ham shakliy ham mazmuniy tomondan o'rganish bo'yicha tatqiqotlar olib borildi, olib borilmoqda.

Leksemaning tashqi tomoni (ifodalovchisi) deyilganda, uning fonetik qobig'i (fonemalar, bo'g'inlar va so'z urg'usidan tarkib topgan moddiy-material shakli) nazarda tutiladi. Masalan, quloq leksemasining tashqi tomoni 5 ta fonema (q,u,l,o,q), 2 ta bo'g'in (quloq) va 1 ta so'z urg'usidan (quloq) tarkib topgan leksemaning nomema(ifoda plani) tomoni, (H.Jamolxonov, 2013, 239-bet) umuman, leksemaning umumiy tabiatini ochishda akustik-artikulatsion tomondan muhim bo'lgan (bunga tilshunoslar tomonidan yetarli ma'lumotlar

berib o'tilgan) butunlik sifatida qaraladi va leksemaning nomema(shakl) tomoni uncha murakkab emas, lekin leksemaning semema(ma'no) tomoni murakkabdir. Buning asosiy sababi leksema ma'nosi tarkibiy qismlarining va ular bilan bog'liq holda yuz beradigan til hodisalarining mohiyati nihoyatda murakkabligidadir (A.Hojiyev, 2010, 81-bet). Masalan, semema– obyektiv borliq elementlarining kishi ongida aks etishi natijasida bu elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarning umumlashuvi orqasida yuzaga keladigan ideal struktura (I.Qo'chqortoyev, 2002, 38-bet) ta'rifini keltirib, leksemaning semema tomoni g'oyat murakkab til hodisasi sifatida til sistemasidagi mikrosistema(semantik sistema) ekanligini aytiladi. Buning isboti o'laroq aytishimiz mumkinki, leksemalar turli ma'no tomondan semantik guruhlariga(maydonlarga) ajralishining o'ziyoq, uning faqat lingvistik tomondan emas, balki psixologik va fizologik tomondan ham tekshirilishi kerakligi, chunki faqat idrok orqali semantik maydonni ajratish mumkin (bahor mikromaydoni ostida to'plangan *navro'z, hamal, gul, boychechak, binafsha, ochilmoq, ekin, unmoq, urug', kurtak, maysa, sumalak, ko'ksomsa, ko'kchuchvara, sel* kabi so'zlar o'rtasidagi munosabatlar bitta mazmuniy maydonga birlashgan). Umuman, semantik maydon til faktlaridan keltirib chiqarilgan, til ontologiyasiga asoslangan real tushunchadir (I.Qo'chqortoyev, 2002, 38-bet). Shuningdek, sema haqida, masalan, sema turlari(atash, ifoda, vazifa), o'ziga xos xususiyatlari(hosila semaning vujudga kelishi yoki formal tilshunoslik bo'yicha ma'noning ko'chishi, e'tibor bersak, ma'no ko'chishining ham tilshunoslikda ahamiyati katta. U nutqni jonlantirish, badiiylashtirish va emotsional-eksperssiv jihatdan kuchaytirish vositasi (S.Xajiyev, 2007, 4-bet) hamdir yoki leksemada valentlik tushunchasi, umuman, leksemalarning o'zaro valentlik imkoniyatlari tomoni ham g'oyat murakkab bo'lgan tildagi jarayonlardir. Leksemaning ma'no tomoni haqida gap ketar ekan, groudonomik, giponomik, portonomik kabi ma'no-munosabatga kirishishini ham sanab o'tish lozim, umuman olganda, leksemaning semantik tabiati tomoni birmuncha murakkab, qiyin ekanligini ko'rsatib turibdi va bularning hammasi semasiologik tahlil orqali oydinlashadi.

O'zbek substansial tilshunosligining keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O'zbekistonda ommalashishi S.Ivanovning shogirdi professor H.Ne'matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog'liq (Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya, 2002, 95-bet). Zamonaviy o'zbek tilshunosligida lisoniy va nutqiy hodisaning ajratilishi va bir biriga qarama-qarshi qo'yilishi til atamasi esa har ikki uchun umumiy atama sifatida qo'llana boshladi (Sh.Rahmatullayev, 2002, 12-bet). Lisoniy birliklarning va nutqiy birliklarning ajratilishi lisonga xos leksema va nutqqa xos so'zni ham bir-biridan farqlash, ularning o'zaro munosabati haqida fikrlar, tushunchalar tilshunos olimlar tomonidan bildirib o'tildi. Nutq lisonga nisbatan behad boyligi, rang-barangligi va o'ta ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi (Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya, 2002, 203-bet), ya'ni leksema nutqda reallashgandan so'ng, unga turli nolisoniy hodisalar(nutq uslubi, nutq vaziyati kabi) ham yopishib murakkablikni yuzaga keltiradi. Ilmiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zbek tilida leksemaning hosil bo'lishi, unga leksema maqomining berilishi yoki tilda mavjud bo'lgan biror nutqiy so'z leksemaga aylanishi haqida o'z munosabatini bildirgan akademik A.Hojiyev, masalan, yasama so'zning leksemalashuv jarayonini chuqur tahlil qilib, umuman, yasama so'z lisoniy hodisami yoki nutqiy hodisa? O'z davrida akademik A.G'ulomov ham "Hamma tipdagi so'z yasaliş uchun umumiy belgi leksema hosil qilishdir (O'zbek tili grammatikasi, 1975, 29-bet)", – deb munosabatini bildirgan edi. Akademik A.Xojiyev yasama so'zning moyihatini ochish, uning qanday hodisa ekanligini ilmiy asoslashga harakat qilib, o'z ilmiy qarashlarini bildiradi. Leksemaning ta'rifida keltirilishicha, uning eng asosiy xususiyati "tayyorligi", ya'ni yasama emasligidir. Nutqiy birlikda yasalgan so'z ma'lum davr o'tishi bilan o'zbek tili vakillari uchun "tayyorlik", "umumiylik" kasb etadi. So'z yasaliş qonun-qoidalari asosida hosil qilgan yasama so'z tayyor birlikka aylanadi. Masalan, terim yoki terimchi so'zlari har safar yangidan yasalavermaydi. Bu esa lisoniy birlik – leksema bo'lish belgisidir (A.Hojiyev, 2007, 23-bet).

O'zbek tilshunosligida sistem leksikologiyaning ilk bosqichlarida Yevropa tilshunosligidan kelib chiqib, so'zga(leksema) morfema orqali ta'rif berildi, lekin agglyutunativ tillar flektiv tillardan keskin farqlanishi, masalan, flektiv tillarda o'zaklar mustaqil qo'llanishga ega emas, aksincha agglyutunativ tillar, jumladan, o'zbek tilida(barcha turkiy tillarda ham) leksema kishi ongida aniq denotativ ma'noga ega bo'lib, borliqning biror bo'lagi bilan aloqador holda idrok qilinadi (B.Mengliyev, 2002, 17-bet). Leksema termini "tilning lug'at tarkibiga mansub so'z", "lug'aviy ma'noli so'z" degan ma'noda, so'zning bir vazifasidagina qo'llanadi. Qolgan hollarda "so'z" o'rnida "leksema" qo'llanmaydi. Masalan, so'z yasalishi, so'z shakli, so'z urg'usi, so'z birikmasi, so'zlarning paydo bo'lishi, lug'atning so'zligi birikmalari tarkibidagi so'z o'rnida leksema qo'llanmaydi. Shu aytilganlar asosida faqat lug'aviy sistemaning til birligini leksema, sistemaning o'zini leksik sistema deb atadik - ularga nisbatan shu terminlarni qo'lladik (A.Hojiyev, 2010, 79-bet). Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida leksemaning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari belgilab berildi.

Xulosa. Tilda inson omili va shunga aloqador bo'lgan masalalar, ya'ni tilning dunyoni bilishdagi roli va dunyoning lingvistik tasviri, dunyoni bilishning milliy o'ziga xosligi kabi tushunchalarni talqin qilish kun tartibidagi eng muhim masalalarga aylandi (S.Hajiyev, 2007, 9-bet). Kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lgan til va uning sintaktik qurlishini ta'minlovchi leksik birliklar qanchalik mukammal holatga keltirilgan bo'lsa(masalan, maishiy leksika, poetik leksika, ish yuritish leksikasi, publisistik leksika, terminologik leksika kabi), til egalarining nutqiy qobiliyati ham, shunchalik mukammal bo'ladi. Shunday ekan, nutqiy muloqotda leksik birliklarni uslubiga qarab to'g'ri qo'llay olishi kishining bilim darajasini, saviyasini, nutqiy madaniyatini ifodalaydi. Zamonaviy leksikologiyaning barcha yo'nalishlari rivojlandi va mavjud yaratilgan manbalar asosida "O'zbek tilining milliy korpusi" ni yaratish, ishlab chiqish vazifasi(zamon talabi) qo'yilganligi va bu bo'yicha tatqiqot ishlari olib borilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
2. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
3. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O 'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(18), 144-146.
4. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР "ЎЛИК СЎЗЛАР" ДИР. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 74-78.
5. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
6. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
7. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
8. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
9. Axrorov, A. A. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49-53.

10. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
11. Boxodirovich, E. N., & Murtazaevich, M. S. (2022). Phonological approaches to the study of the phoneme.
12. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.
13. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 26-29.
14. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 376-385.
15. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
16. Murtazayevich, M. S., Akbarovich, A. A., & Muratkulov, A. (2025). OTLARNING XUSUSIY BIRIKUVCHILARINING LINGVISTIK TAHLILI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 212-215.
17. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).
18. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
19. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.
20. Yerjanova, S. B., & To'ychieva, Z. H. L. (2024). MAHMUD KOSHG 'ARIYNING "DEVONU LUG 'OTIT TURK" ASARIDA SO 'ZLARNI KO 'CHMA MA'NODA QO 'LLASH. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 7-12.

IN-ACADEMY